

O'zbekiston Respublikasiga MDH mamlakatlari bo'gan **Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Gruzija, Qozog'iston, Moldaviya, Rossiya, Ukraina va Qirg'izistondan** kelgan fuqarolar uchun **60 kunlik muddatga** vizasiz tartib o'rnatilgan.

Bundan tashqari, **Isroil, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur, Tojikiston, GFR, Turkiya, Fransiya va Yaponiya, Avstraliya Ittifoqi, Avstriya Respublikasi, Argentina Respublikasi, Bosniya va Gersegovina, Vatikan, Lyksemburg Buyuk Gersogligi, Vengriya, Bruney-Dorussalom davlati, Gretsiya Respublikasi, Irlandiya, Islandiya, Italiya Respublikasi, Kanada, Andorra Knyazligi, Lixtenshteyn Knyazligi, Monako Knyazligi, Belgiya Qirolligi, Daniya Qirolligi, Ispaniya Qirolligi, Niderlandiya Qirolligi, Norvegiya Qirolligi, Shvetsiya Qirolligi, Latviya Respublikasi, Litva Respublikasi, Mo'g'iliston, Yangi Zelandiya, Portugaliya Respublikasi, Bolgariya Respublikasi, Kipr Respublikasi, Malta Respublikasi, Polsha Respublikasi, San-Marino Respublikasi, Serbiya Respublikasi, Sloveniya Respublikasi, Xorvatiya Respublikasi, Chili Respublikasi, Ruminiya, Slovakiya Respublikasi, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qirolligi, Braziliya Federativ Respublikasi, Finlyandiya Respublikasi, Chernogoriya, Chexiya Respublikasi, Shveysariya Konfederatsiyasi va Estoniya Respublikalari** fuqarolari O'zbekistonga 30 kun muddatga vizasiz kirish huquqiga ega.

Elektron vizalarni E-VISA.GOV.UZ portalidan quyidagi mamlakatlar fuqarolari olishlari mumkin (Fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan tashqari):

| | | |
|------------------------|--------------------|--------------------|
| Avstraliya | Italiya | Portugaliya |
| Avstriya | Quvayt | AQSh |
| Albaniya | Kanada | Tayland |
| Andorra | Xitoy, Gonkong MAT | Finlyandiya |
| Belgiya | Latviya | Xorvatiya |
| Bolgariya | Litva | Chernogoriya |
| Bosniya va Gersegovina | Lixtenshteyn | Chexiya |
| Vatikan | Lyksemburg | Shveysariya |
| Buyuk Britaniya | Makedoniya | Shvetsiya |
| Vengriya | Malta | Estoniya |
| Germaniya | Monako | Ruminiya |
| Gresiya | Niderlandiya | San-Marino |
| Daniya | Yangi Zelandiya | Saudiya Arabistoni |
| Hindiston | Norvegiya | Serbiya |
| Irlandiya | BAA | Slovakiya |
| Islandiya | Oman | Sloveniya |
| Ispaniya | Polsha | |

| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

Mamlakatlar ro'yxati saytning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kengayishi mumkin.

Muhim: portal orqali faqat sayyohlik vizalari beriladi! Elektron viza O'zbekistonga bir marotaba 30 kun muddatga kirishga ruxsat beradi va berilgan kundan boshlab 90 kun davomida amal qiladi.

Vizasiz tranzit kirish

O'zbekiston 2018-yilning 15-iyulidan boshlab, 101 mamlakat fuqarolari uchun 5 kundan ortiq bo'lmagan muddatga vizasiz tranzit kirishni joriy etdi. Ushbu mamlakatlardan birining fuqarosida O'zbekistondan uchinchi davlatga o'tish uchun "Uzbekistan airways" AJ aviabileti bo'lishi kerak.

O'zbekistongav tranzit kirish, vaqtinchalik yashash va vizasiz chiqish ruxsati berilgan davlatlar:

| | | |
|--------------------|----------------|--------------------------|
| Avstraliya | Hindiston | Polsha |
| Avstriya | Irlandiya | Portugaliya |
| Albaniya | Livan | Ruminiya |
| Aljir | Islandiya | San-Marino |
| Andorra | Ispaniya | Saudiya Arabistoni |
| Antigua va Barbuda | Italiya | Seyshel Orollari |
| Argentina | Kanada | Sent-Vinsent va Grenadin |
| Bagam Orollari | Qatar | Sent-Kit va Nevis |
| Barbados | Kipr | Sent-Lyusiya |
| Baxreyn | Xitoy, Gonkong | Serbiya |
| Beliz | Kolumbiya | Slovakiya |
| Belgiya | Kosta-Rika | Sloveniya |
| Bolgariya | Quveyt | Surinam |

| | | |
|---------------------------------------|-----------------|--------------------|
| Bosniya va Gersegovina | Latviya | AQSh |
| Braziliya | Litva | Tayland |
| Bruney-Dorussalom | Lixtenshteyn | Trinidad va Tobago |
| Butan | Lyksemburg | Tunis |
| Vatikan | Mavrikiy | Turkmaniston |
| Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya | Makedoniya | Urugvay |
| Vengriya | Maldiv orollari | Fidji |
| Venesuela | Malta | Filippin |
| Vetnam | Marokko | Finlyandiya |
| Gabon | Meksika | Xorvatiya |
| Gayana | Monako | Chernogoriya |
| Gvatemala | Mogiliston | Chexiya |
| Germaniya | Nauru | Chili |
| Gonduras | Niderlamdiya | Shveysariya |
| Grenada | Yangi Zelandiya | Shvetsiya |
| Gretsiya | Norvegiya | Shri-Lanka |
| Daniya | BAA | Ekvador |
| Dominika | Oman | Ekvatorial Gvineya |
| Dominik Respublikasi | Palau | Estoniya |
| | Panama | JAR |
| | Peru | Yamayka |

Voyaga etmaganlar uchun O'zbekistonga viza

16 yoshga to'lmagan xorijiy davlat fuqarolari uchun quyidagi shartlar asosida O'zbekiston Respublikasiga kirishning vizasiz rejimi mavjud:

- bolaning xorijga chiqish pasporti yoki biometrik sayohat hujjatining mavjudligi;
- O'zbekistonga kirish vizasini olgan yuridik (qonuniy) vakili (ota-ona yoki vasiy).

Shu bilan birga, voyaga etmagan fuqaroning yashash muddati u bilan birga kelgan shaxsning vizasi amal qilish muddati bilan cheklanadi, lekin 90 kundan oshmasligi lozim. Chet el fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan vaqtida 16 yoshga to'lgan bo'lsa, belgilangan tartibda migratsiya bo'linmalarida viza va fuqarolik rasmiylashtirilishi kerak.

2020

[Yuqoriga](#)[PDF Yuklash](#) [Print](#)

Источник URL (изменение 25/10/2019 - 12:07): <https://www.uzairways.com/uz/flights/chet-el-fuqarolari-uchun-viza-qoidalari>